

## QARINDOSHLAR O'RTASIDAGI NIKOHNİ OLDINI OLISHNING HUQUQIY ASOSLARI



ELSEVIER



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7782894>

**Dilafuz Karimova**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
"Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar"  
kafedrası dotsenti, (DSc)  
E-mail: afruza@ro.ru



**Abstract:** This article highlights the legal status of the family in the Republic of Uzbekistan, its importance in society, negative factors affecting the stability of the family, such as marriages between relatives, as well as the legal and moral foundations for their prevention.

**Keywords:** family, Republic of Uzbekistan, law, marriage between relatives, family and marriage relations, negative consequences.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Received:** 22-03-2023

**Accepted:** 22-03-2023

**Published:** 22-03-2023

Oila - bu jamiyatning ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, oila mustahkam bo'lar ekan jamiyat va davlat mustahkam, oila tinch ekan jamiyat va davlat tinchdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Oila kichik Vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi"<sup>187</sup>. Bejizga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"<sup>188</sup> ekanligi belgilab qo'yilmagan.

Bugungi kunda oilaning mustahkamligiga salbiy ta'sir etuvchi omillardan biri qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikoh bo'lib qolmoqda. Respublika Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda shaharlarda qarindoshlar o'rtasida oila qurish hollari o'n foyizga, qishloq joylarida yigirma-yigirma besh foyizga yetayotgan ekan<sup>189</sup>. O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh munosabatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaydiganlarning darajasi 10,8 foizni, oddiy xolat sifatida qo'llab-quvvatlaydiganlar 26,0 foizni tashkil etgan<sup>190</sup>. Tibbiyot olimlari yaqin qarindoshlar bilan oila qurishning salbiy oqibatlari ko'pligini ta'kidlashadi. Ayniqsa, qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikohning ayanchli oqibatlari mamlakatimiz kelajagining mustahkam poydevori bo'lmish yosh avlodda aks etishi qayg'uli.

<sup>187</sup> [Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlari - ijtimoiy.uz // https://ijtimoiy.uz/1875/](https://ijtimoiy.uz/1875/)

<sup>188</sup> 08.12.1992. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (lex.uz) // <https://lex.uz/docs/-20596>

<sup>189</sup> [Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh rishtasining salbiy oqibatlari \(aniq.uz\) // https://aniq.uz/uz/yangiliklar/qarindoshlar-urtasidagi-nikoh-rishtasining-salbiy-oqibatlari](https://aniq.uz/uz/yangiliklar/qarindoshlar-urtasidagi-nikoh-rishtasining-salbiy-oqibatlari)

<sup>190</sup> [Qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlari va uning salbiy oqibatlarini oldini olish - Demografiya portal // https://demografiya.uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/qarindoshlar-o-rtasida-nikoh-tuzish-holatlariva-uning-salbiy-oqibatlarini-oldini-olish/](https://demografiya.uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/qarindoshlar-o-rtasida-nikoh-tuzish-holatlariva-uning-salbiy-oqibatlarini-oldini-olish/)

Mutuxassislarning aytishicha, yaqin qarindoshlarning nikohi yetti avloddan keyin ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin ekan. Shu bois, **O'zbekiston Respublikasining oila kodeksining 16-moddasida** loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida, loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasidagi nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar qatorida nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi deb keltirilgan.

Qarindoshlar o'rtasida nikoh munosabatlarini vujudga keltiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" da ham o'z aksini topgan. Xususan, mazkur Konsepsiyaning yoshlar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, ular o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash yo'nalishida millat genofondini yaxshilash, oilada tibbiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom avlod tug'ilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzilishi holatlarining oldini olish vazifasi belgilangan"<sup>191</sup>.

Oila qurish o'ta noziklik bilan puxta o'ylab bajariladigan vazifa. Zero, Temuriylar imperiyasi asoschisi Amir Temur ham kelin tanlash vazifasini davlat ishlari bilan teng qo'yganligini ta'kidlab o'tganlar. Kelajakda atrofdagilarga va o'ziga zahmat yetkazmaslik uchun oilani avval boshidan to'g'ri qurish muhimdir. Bu haqda islom dinida alohida e'tibor qaratilib, uylanishdan oldin «farzandingizga munosib onani ixtiyor qiling, deb ta'kidlangan.

Oisha (r.a) dan rivoyat qilgan hadisda esa «Sizlar o'z naslingizga (ona bo'lishga) munosib jufti halolni axtaring. O'zingizga munosiblarga nikohlaning»<sup>192</sup> deyilgan.

Shuningdek, yaqin qarindoshlarning o'zaro oila qurishlari oilaning nasliga, tug'ilajak farzand sog'lig'iga ta'sir etishi bo'yicha musulmonlar ogohlantirilgan. Manbalarda «Qarindoshlarga nikohlanmanglar. Albatta, qarindoshlarga nikohlanishda bola nimjon, madorsiz tug'iladi» deb keltirilgan. "Islomda farzand huquqlari" deb nomlangan adabiyotda keltirilishicha, Umar (r.a.) Oli Saif qabilasiga borganlarida, qavm Umarga (r.a.) shikoyat qilib: «Ey amiralmo'minin,

---

<sup>191</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2021 y., 09/21/23/0056-son.

<sup>192</sup> Saydaliyeva, N., & Nazirov, M. (2018). Features of the state youth policy in Uzbekistan. Paradigmata poznani, (4), 117-120.

bizning farzandlarimiz zaif va nuqson bilan tug'ilmoqda», deyishdi. Shunda Umar (r.a.) bu holatni o'rganib, «Sizlar o'zaro oila qurishdan chetlaninglar. O'zga qavmlar bilan oila qurishni yo'lga qo'yinglar<sup>193</sup>», deb ta'kidlagan ekanlar.

Darhaqiqat, har tomonlama rivojlangan jamiyat barpo etishda sog'lom oila qurishning mazmun va mohiyatini anglab yetish, bo'lajak oilaning mustahkam, tug'ilajak farzandlarning sog'lom bo'lishida nikohlanuvchi shaxslarning jismonan va ruhan sog'lomligi bilan bir qatorda, genetik jihatdan bir-biridan farqlanishi, ya'ni qarindoshlik rishtalarining mavjud bo'lmasligi ulkan ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda va butun jahonda qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oldini olish, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh holatlarini oldini olishning samarali mexanizmlari - ijtimoiy.uz // <https://ijtimoiy.uz/1875/>
2. 08.12.1992. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (lex.uz) // <https://lex.uz/docs/-20596>
3. Qarindoshlar o'rtasidagi nikoh rishtasining salbiy oqibatlari (aniq.uz) // <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/qarindoshlar-urtasidagi-nikoh-rishtasining-salbiy-oqibatlari>
4. Qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish holatlari va uning salbiy oqibatlarini oldini olish - Demografiya portal // <https://demografiya.uz/ilmiy-tahliliy-axborotnoma/qarindoshlar-o-rtasida-nikoh-tuzish-holatlari-va-uning-salbiy-oqibatlarini-oldini-olish/>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2021 y., 09/21/23/0056-son.
6. Saydaliyeva, N., & Nazirov, M. (2018). Features of the state youth policy in Uzbekistan. *Paradigmata poznani*, (4), 117-120.
7. Мамазова, З. (2016). Защита материнства и детства в Узбекистане. Вестник современной науки, (2-2), 129-131.

---

<sup>193</sup> Мамазова, З. (2016). Защита материнства и детства в Узбекистане. Вестник современной науки, (2-2), 129-131.